

## *1-topshiriq.*

**O'zbekistonda lizing xizmatlari sektori tahlilini amalga oshiring.**

## *2-topshiriq*

**Respublikamizdagi istalgan lizing kompaniyasini tanlab olgan holda quyidagi savollarni yoritib taqdimot (prezentatsiya) tayyorlang:**

- **O'zbekistonda lizing xizmatlari**
- Tanlagan lizing kompaniyasining tashkil topishi
- Kompaniya ta'rischilari
- **Lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi**
- Kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
- Kompaniyada korporativ boshqaruv
- **Lizingning afzalliklari va foydali taraflari**

*Valijonov Xusan Bahromjon o'g'li*

*Тел: (99) 911 55 34, e-mail:*

*xusanvalijonov@mail.ru*

# LIZING

- Lizing - bu tadbirkorlik turi bo'lib, vaqtinchalik bo'sh bo'lgan yoki qarz qilib olingan pul mablag'larini investitsiya qilish orqali, lizing shartnomasi asosida lizing beruvchi lizing shartnomasida ko'rsatilgan mulkni, aniqlangan sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga tadbirkorlik uchun aniqlangan to'lovlar asosida vaqtinchalik foydalanishga etkazib berish majburiyatlarini oladi.






Лизинг  
шартномаси

Лизинг олувчи

Ускуна сотувчи

Ускунани  
келтириш



- Lizing ob'ekti sifatida olib ketiladigan tovarlarga bojxona to'lovlari hisoblash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- Moliyaviy lizingda, lizing ob'ekti lizing oluvchi mulkiga o'tgandan keyin, lizing ob'ekti "eksport" bojxona rejimi ostiga olinadi. Bunda ilgari to'langan bojxona to'lovlari eksport qilishda to'lanadigan bojxona to'lovlari summasiga hisoblanadi.
- Lizing ob'ektini olib ketish chog'ida bojxona to'lovlari to'lash uning bojxona qiymatining to'langan qismi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshirilib (lizing to'lovlari), bank hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Keyinchalik bojxona to'lovlari lizing to'lovlari kelib tushishiga ko'ra **20 kun** mobaynida to'lanadi.
- Vaqtincha olib ketilgan lizing tovari qaytarib olib kelinganda u import tovar hisoblanmaydi va undan bojxona poshlinalari hamda yig'img'lar olinmaydi.



## • O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy lizingni tashkil etishning huquqiy asoslari

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2006 yil 21 oktyabrdagi "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lizing faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 2002 yil
- O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi Qonuni, T.: "O'zbekiston", 1991 yil 19 noyabr
- O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, 1999 yil 14 aprel;

- Lizing bitimi asosida lizing oluvchining lizing to'lovlari xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$L_t = A + K_t + T_{\text{komis}} + Q_t + QQS + BB$$



A - lizing beruvchida joriy yilda hisobga olinadigan amortizatsiya ajratmalari miqdor o'lchovi, so'mda;

$T_{\text{komis}}$  - lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli, so'mda;

QQS - lizing beruvchi xizmatlari bo'yicha lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, so'mda;


BB - bojxona boji, so'mda;

$K_t$  - kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

$Q_t$  - qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov, so'mda



Amaliyotda moliyaviy lizing bo'yicha ijara to'lovlari hisoblash uchun **annutet** formulasidan foydalaniladi:



$$P = A_x \frac{I:T}{1 - 1:(1+I:T)^{Tx\Pi}}$$



Bu yerda,

R- ijara to'lovlari summasi;

A- amortizatsiya ajratmalari summasi yoki (ijaraga berilayotgan mulk qiymati);

P – shartnoma muddati;

I – lizing bo'yicha foiz;

T – ijara to'lovlari davrlari.

Bu yerda diskritlash usuli qo'llanilmagan.

## “BARAKA” universal lizing kompaniysi

Tanlagan lizing kompaniyasining nomi	Kompaniyaning tashkil topishi	<a href="#">Kompaniya ta'sischilari</a>	Lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi	E-mail Telefon	Manzil
“BARAKA” universal lizing	1996 yil 2 sentyabrda davlat ro'yxatidan o'tkazildi.	O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi O'zbekinvest Hayot “Ipak Yo'li” banki “Ishonch” banklararo sug'urta kompaniyasi	O'zbekiston Respublikasi ning “Lizing to'g'risida”gi Qonuni, 1999 yil 14 aprel tartibi berilgan.	<a href="mailto:barakalizing@mail.ru">barakalizing@mail.ru</a>  (+998 71) 238-69-79	100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko'chasi, 1

### Lizingning afzalliklari (-) va foydali taraflari

<p>Tezkor lizingning soddaligi va qulayligi</p> <p>Lizing shartnomasini bekor qilish va lizing mol-mulki barvaqt ma'naviy eskirish riskini kamaytirish mumkinligi</p> <p>Davlat manfaatlarining ruyobga chiqishi</p>	<p>Lizing mol-mulkiga mustaqil xizmat ko'rsatish imkoniyatini olish</p> <p>Qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirishga nisbatan chiqimlarning birmuncha pastroq darajasi</p> <p>Ko'plab mamlakatlarda lizing beruvchilar va lizing oluvchilar uchun yaratiladigai soliq qalqonidan foydalanish mumkinligi</p>
--	---

# “BARAKA” universal lizing kompaniyasi mulki sotuvchisi uchun lizing operatsiyalarining ustunliklari

Sifat ustunliklari	Ustunlik omillari
Faol marketingni o'tkazish	Uskunalarni mulk sifatida olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar; texnikani avvalo ishda sinab keyin olmoqchi bulganlar; ijara shartida foydalanmoqchi bulganlar.
To'laqonli aloqaning urnatilishi	Uskunalarning konstruktiv kamchiliklarini tezkor ravishda aniqlash.
Mahsulot etishtirilishini kengaytirish va ularni yangilash imkoniyatlarini qo'lga kiritish.	Modellar almashishining tezlanishi va buning asosida yangi bozorlarni qo'lga kiritish.
To'lanmaslik risklarini oldini olish.	Lizing kompaniyasi lizing shartnomasi to'lovini va kafolatlarini o'z zimmasiga olishi.
Samarali reklama vositasi.	Lizing mulkini ishlatish davrida monitoring doirasi kengaytirish va bo'lajak oluvchilarning qiziqishining oshishi
Lizing uskunasi ehtiyot qismlari va komplektlariga talab oshishi.	Lizing mulkini ishlatilishi turli zahira qismlarini etkazib berish talabini chiqarish.
Yo'naltirilgan investitsiyalarni bo'shatilishi	Uskunalarni tezda sotish natijasida ishlab chikaruvchida uning yo'naltirilgan investitsiyalari qisman bushaydi
Mulk ishlab chiqaruvchisi (mulkdor) tomonidan sotilmagan mulkni foydalanish samarasini ko'tarilishi.	Belgilangan muddatga qaytarib berish sharti bilan lizingga beriladi.



## Lizing beruvchi uchun lizing operatsiyalarining strategik ustunliklari

Strategik ustunliklar	Mazkur ustunliklari ta'minlaydigan omillar
Kreditor himoya darajasining oshishi.	Bitishuv lizing ob'ektining uzi bilan ta'minlanadi(kafolatlanadi).Foydalanuvchi bankrot bulgan taqdirda lizing ob'ekti mulkdorga qaytariladi. Lizing beruvchi tomonidan tulanmagan takdirda lizing ob'ekti talab qilib olinishi va zararni qoplash uchun sotilishi mumkin
Soliq sohasidagi imtiyozlar, lizingning davlat tomonidan qullab-	Lizing oluvchi hisobidan soliq imtiyozlari olish imkonini beradi va soliq shartlari turlicha bulgan taqdirda lizing beruvchiga lizing bitimidan qushimcha manfaatni ta'minlaydi.
Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi va diversifikatsiya qilinishi	Lizing munosabatlari sohasiga yangi sub'ektlar jalb etiladi va shu tariqa tovar ishlab chiqaruvchilar uchun sotish bozori kengayadi. Texnikaga to'lov qobiliyatli talab qullabquvvatlanadi, yangi mahsulot ishlab chiqarish miqyosi va sifati kengayishi uchun imkoniyat vujudga keladi.
Davlat manfaatlarining ruyobga chiqishi	Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya bilan qayta qurollantirish jadallashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalar jalb etiladi. Tadbirkorlik faollashuvi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish kengayisha hisobiga byudjetga soliq tushumlari kupayadi.
Lizing beruvchilarning Moliyaviy barqarorligi oshishi.	Investitsiya harajatlari va daromadlari bab-baravar namoyon buladi.
Moliyaviy leveraj (vosita)ning samarasi	Lizing beruvchilar uchun lizing ob'ektidan har yilgi moliyaviy manfaatlar, odatda, kredit bo'yicha foizlardan yuqori buladi.

# “BARAKA” universal lizing kompaniysi lizing oluvchi uchun lizing operatsiyalarining strategik ustunliklari

Ustunliklar	Mazkur ustunliklarni ta'minlaydiga omillar
O'zining ilk kapitaliga ehtiyojning pasayishi	Avvaliga bitishuv tula-tukis lizing beruvchi tomonidan moliyalanadi. Zarur asbob-uskuna haqini bir yo'latulash talab qilinmaydi, bu esa foydalanuvchining likvid mablag'ini ozod qiladi va uning ishlab chiqarishni kengaytirish uchun potentsial aylanma kapitalining ko'paytiradi.
To'lovlar tizimining moslanuvchanligi	Birinchi to'lov muddatini uzaytirish, bulak va boshqa shakldagi to'lovlarni asta-sekin kupaytirish yoki kamaytirish mumkin. Lizingga olingan asbob- uskunada ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar shaklida foydadan to'lovlarni amalga oshirish mumkin.
Transaksiyalardagi tejash	Lizing beruvchidan mol-mulkni sotib olish, saqlash, tugatish va sotishdagi sermehnat operatsiyalarga ehtiyoj bo'lmasligi hisobiga ma'muriyat chiqimlar kamayadi.
Soliq imtiyozlari, lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi	Ko'pchilik mamlakatlarda lizing oluvchilar uchun lizing to'lovlarini sundirish davrida soliq sohasida qushimcha imtiyozlar beriladi.
Asbob-uskunaning ma'naviy eskirishi munosabati bilan tovar ishlab chiqaruvchi uchun risklar kamayishi	Asbob-uskunaning ma'naviy va jismoniy eskirishi riski lizing beruvchiga utadi. Foydalanuvchi yangi asbobuskunani ijaraga olishi mumkin.
Lizing oluvchining ilmiy ishlab chiqarish salohiyatining ortishi	Lizingda bir xil ilk kapital foizli kreditni xarid qilgandan ko'ra ancha kuproq ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solish imkonini beradi.
Tadbirkorning iqtisodiy erkinligi kengayishi	Lizing ob'ektini sotib olish, shartnoma muddatini uzaytirish va yangi zamonaviy asbob-uskuna xarid qilish yo'llaridan birini tanlash.
Tovar ishlab-chiqaruvchining	Lizing ob'ekti lizing beruvchining mulki bo'lib, uning balansida hisobda

**BARAKA**” universal lizing kompaniyasi 1998 yil fevral oyida Yevropa Lizing Kompaniyalari Assotsiatsiyalari Federatsiyasi (Shtab - kvartirasi Bryussel shahrida, 17 davlat lizing federatsiyalari a’zo) ning raislari va ijroya qo’mitalari «Baraka» universal lizing kompaniyasining shu tashkilotning muxbir a’zosi ekanligi haqidagi hujjatlarni tasdiqladi. Kompaniya lizing operatsiyalarini tashkil etish borasida va birgalikda faoliyat yuritish maqsadida mamlakatimizdagi 20 tadan ortiq tijorat banklari hamda Respublika tovar ishlab chiqaruvchilar va savdo Palatasi bilan Bosh shartnomalarni imzoladi.



O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qo’shma lizing kompaniyasini tashkil etish haqidagi qaroriga muvofiq 1996 yilda «**BARAKA**” **universal lizing kompaniyasi** » tashkil etildi va o’sha yildan boshlab o’z faoliyatini yo’lga qo’ydi. Bu jamiyat yopiq turdagi aksionerlik jamiyati bo’lib xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlantirishni maqsad qilib olgan.



4 million AQSh dollariga teng dastlabki ustav kapitaliga ega bo'lgan kompaniyadir. Uning muassislari Xalqaro moliya korporatsiyasi Malayziya Meybanki hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bo'lgan. Bundan tashqari, har bir muassis 5 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini ham ko'zda tutilgan.



**BARAKA**” universal lizing kompaniysi kompaniyasi Respublikamizga yuqori unumdorlikka ega bo'lgan zamonaviy jihozlar va texnologiyalarni jalb qilish maqsadida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq, har biri 68 mingdan 300 ming AKSh dollariga qadar bo'lgan qiymatdagi ettita loyiha bo'yicha faoliyatini boshlagan.

## Baraka lizing kompaniyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sotib olishlarni uzoq muddatli moliyalash va texnologik asbob uskunalardan foydalanish;

Eksport salohiyatini oshirish hamda import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga ilgor texnologiyalarni jalb etish;

Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yuksaltirish uchun lizing xizmatlarining keng doirasini taqdim etish;

Lizing operatsiyalarini o'tkazish va tavsiyalar berish uslubiyatini ishlab, chiqishdir.

## “BARAKA” universal lizing kompaniyasi milliy valyutadagi lizing shartlari

So'mda lizing	
Moliyalashtirish miqdori	\$10,000 - \$300,000 (ekvivalent so'mda)
Lizing muddati	1 yildan kam 5 yildan ko'p bo'lmagan
To'lovlar	Milliy valyutada
Milliy valyutada lizingning xarajatlari	
Komissiya to'lovi	Loyixani ko'rilishi uchun uskuna narxidan 1%
Avans to'lovi	3 oylik lizing to'lovlari
Oraliq to'lovlar	Uskuna uchun to'lov amalga oshirilgan kundan uskunani ishga tushirish dalolatnomasi imzolangan kungacha bo'lgan oraliqqa hisoblangan to'lov
Sug'urtalash	Uskuna va kafolat ob'ekti (masalan Lizingoluvchi/Mijozning bino/inshootlari) sug'urta kompaniyasi tomonidan butun lizing muddatiga sug'urtalanadi. Sug'urta kompaniyasining shartlari va uskuna narxidan kelib chiqqan xolda sug'urta to'lovi 0,2% dan 1,5% gacha bo'lishi mumkin.
Sertifikatlash	"UZBEKEKSPERTIZA" kompaniyasining sertifikatlash tartibi bilan bog'liq xarajatlar

## “BARAKA” universal lizing kompaniysi xorijiy valyutadagi lizing shartlari

Xorijiy valyutada lizingning xarajatlari	
Komissiya to'lovi	Loyixani ko'rilishi uchun uskuna narxidan 1% (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)
Avans to'lovi	3 oylik lizing to'lovlari (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)
Akkreditiv ochilishi	Uskuna narxidan 1% (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)
Oraliq to'lovlar	Akkreditiv ochilish kunidan boshlab yoki 15% li oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan uskunani ishga tushirish dalolatnomasi imzolangan kungacha bo'lgan oraliqqa hisoblangan to'lov
Sug'urtalash	Import qilingan uskuna va kafolat ob'ekti (masalan Lizingoluvchi/Mijozning bino/inshootlari) sug'urta kompaniyasi tomonidan butun lizing muddatiga sug'urtalanadi. Sug'urta kompaniyasining shartlari va uskuna narxidan kelib chiqqan xolda sug'urta to'lovi 0,2% dan 1,5% gacha (so'mda to'lov kuniga Markaziy bank kursida) bo'lishi mumkin
Sertifikatlash	"UZBEKEKSPERTIZA" kompaniyasining sertifikatlash tartibi bilan bog'liq xarajatlar
Bojxona bilan bog'liq to'lovlar	Bojxona protseduralari - uskuna narxidan 0,2% Bojxona deklaratsiyasi - uskuna narxidan 0,7% (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)

# Qo'shimcha ma'lumotlar.



Kompaniya "Lizing to'g'risida"gi qonun va "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining lizing loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar beradi. Hozirgi kunda Kompaniya O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlari bilan qo'shma hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Kompaniyaning asosiy kelishuvi "Ipak Yo'li" AITB bilan o'rnatilgan hamkorlik hisoblanadi. 2012-2016 yillar mobaynida ushbu bankning 10 000 million so'm miqdoridagi resursi bir qancha loyihalarni amalga oshirish uchun jalb qilingan.



Bundan tashqari O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasining bo'limlari tarkibiga kiruvchi bir nechta tashkilotlar bilan ham aloqalar o'rnatilgan. 2017 yil mobaynida kompaniya tijorat banklari bilan hamkorlikda ishlashda davom etmoqda. Bir qancha banklar bilan hamkorlikda kichik va o'rta biznesning katta qismiga xizmat ko'rsatish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun metodologik qo'llanma ishlab chiqish va O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston lizingchilar uyushmasining Toshkent shahri va viloyatlarda tashkil etadigan yig'ilishlarida qatnashishni rejalashtirilgan.



## Асосий воситалари турлари бўйича лизинг битимлари тақсимоти



2000 yil dekabr oyida “Baraka” ULK yuridik maqomini Mas’uliyati Cheklangan Jamiyatga o’zgartirdi.

2003 yil aprel oyida “Baraka” ULK ustav kapitali 1 mlrd. so’mni tashkil etgan holda Ochiq Aksiyadorlik Jamiyatiga aylantirildi.

2014 yil iyul oyida “Baraka” ULK 3 mlrd. so’m ustav kapitali bilan Aksiyadorlik Jamiyati sifatida faoliyat yurita boshladi.

2015 yil dekabr oyida “Baraka” ULK 3,278 mlrd. so’m ustav kapitaliga ega bo’lgan holda yuridik maqomini Mas’uliyati Cheklangan Jamiyatga o’zgartirdi.

Kompaniyaning bugungi kundagi ustav kapitali 5.319 mlrd. so’mni tashkil etadi.

“Baraka” universal lizing kompaniyasi - lizing xizmatlarini ko’rsatish uchun bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarning mablag’larini jamlaydigan moliyaviy institutdir.

Hozirgi kunda kompaniyaning ta’sischilarini quyidagilar tashkil etadi:

O’zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi - aksiyalar paketining 33,45 % ulushiga ega;

“Ipak Yo’li” aksiyadorlik innovatsion-tijorat banki - aksiyalar paketining 33,08 % ulushiga ega;

“Ishonch” banklararo sug’urta kompaniyasi - aksiyalar paketining 22,69 % ulushiga ega;

“O’zbekinvest Hayot” sug’urta kompaniyasi - aksiyalar paketining 10,78 % ulushiga ega.

“Baraka” universal lizing kompaniyasi faoliyatining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- lizing loyihalarini amalga oshirish uchun bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarning mablag’larini jamlash;
- uskuna, texnologiya, ko’char va ko’chmas mulkdan foydalanishlari uchun tadbirkorlik subyektlari va boshqa turdagi tashkilotlarga lizing xizmatlari ko’rsatish hamda buning natijasida O’zbekiston Respublikasi bozorlarini katta assortimentdagi xalq iste’moli maxsulotlari bilan to’yintirish, eksport va importga mo’ljallangan maxsulotlar ishlab chiqarish, shu bilan birga yangi ish o’rinlarini tashkil etish va yuqori daromadga ega bo’lish;
- lizing oluvchilarning talablari bo’yicha xorijiy bozorlarini marketing tadqiqotlari bo’yicha o’rganish, xalqaro standartlarga javob beradigan yangi uskuna va texnologiyalarni tanlash;
- kompaniyaga kelib tushgan arizalar asosida potensial lizing oluvchilarni aniqlash, uskuna va texnologiyalarga bo’lgan mahalliy bozor talabini o’rganish;
- xalqaro standartlarga mos bo’lgan eng oxirgi uskuna va texnologiyalarni respublikamizga olib kelishni amalga oshirish.

“Baraka” universal lizing kompaniyasi faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- tijorat banklari, byudjetdan tashqari fondlar va boshqa moliyaviy institutlarning bo’sh turgan mablag’larini jalb qilish, shu bilan birga yirik lizing loyihalarini qo’shma moliyalashtirish orqali lizing xizmatlari hajmini oshirish;
- mijozlarni xoxlagan turdagi lizing xizmatlari, shu bilan birga uskunalarni tanlash bo’yicha konsalting xizmatlari bilan ta’minlash va ularning ishlab chiqarish faoliyatini to’liq tashkil etishi uchun boshqa turdagi xizmatlarni ko’rsatish;
- mamlakatimiz hududida O’zbekiston Lizingchilar Uyushmasi bilan hamkorlikda amaliy seminarlar o’tkazish, kichik firma va korxonalar bilan biznes uchrashuvlar tashkil etish va ularga lizing loyihalarining afzalliklarini tushuntirish;
- reklama, seminarlar, biznes uchrashuvlar, Kompaniyani OAVda yoritish orqali kompaniyaga yangi mijozlarni jalb qilish bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borish, mijozlarni marketing va konsalting xizmatlari bilan ta’minlash;
- lizing shartnomalari asosida kichik firmalar va tadbirkorlik subyektlariga har xil turdagi uskunlarni yetkazib berish maqsadida chet ellik va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan yaqin hamkorlik o’rnatish;

- lizing faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimini yanada rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Kompaniya lizing loyihalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekistondagi bir qancha tijorat banklari bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Savdo-sanoat Palatasi, "Ishonch" BSK tashkilotlari va Kompaniya o'rtasida qo'shma hamkorlik olib borish bo'yicha kelishuvlar imzolangan.

Bundan tashqari, Kompaniya metodologik ishlanmalarni yaratishda ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy Universitetining mutaxassislari bilan hamkorlikda iqtisodiy yo'nalish talabalari uchun "Lizing" maxsus kursi bo'yicha o'quv qo'llanma va O'zbekiston Savdo-sanoat Palatasi bilan birgalikda tadbirkorlar uchun "Lizing. Bu nima o'zi?" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqqan.

Kompaniya "Lizing to'g'risida"gi qonun va "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining lizing loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar beradi. Hozirgi kunda Kompaniya O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlari bilan qo'shma hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Kompaniyaning asosiy kelishuvi "Ipak Yo'li" AITB bilan o'rnatilgan hamkorlik hisoblanadi. 2012-2016 yillar mobaynida ushbu bankning 10 000 million so'm miqdoridagi resursi bir qancha loyihalarni amalga oshirish uchun jalb qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasining bo'limlari tarkibiga kiruvchi bir nechta tashkilotlar bilan ham aloqalar o'rnatilgan. 2017 yil mobaynida kompaniya tijorat banklari bilan hamkorlikda ishlashda davom etmoqda. Bir qancha banklar bilan hamkorlikda kichik va o'rta biznesning katta qismiga xizmat ko'rsatish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun metodologik qo'llanma ishlab chiqish va O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston lizingchilar uyushmasining Toshkent shahri va viloyatlarda tashkil etadigan vig'ilishlarida qatnash



E'tiboringiz uchun rahmat.